

№ 7 - sonli  
**Loyiha-smeta xujjatlari tuzish**  
**SHARTNOMASI**

“17” 11 2022 yil

Qarshi shahri

Qashqadaryo viloyat hokimligi Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi nomidan (keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan) Nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi direktori A.Normo'minov bir tomondan va ustav asosida faoliyat ko'rsatayotgan «Reforma-Ezoz» MChJ nomidan (keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» (Bajaruvchi nomi) deb yuritiladigan) Nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi boshlig'i Shuhrat Atabayev ikkinchi tomondan, Chiroqchi tumani Quruqsoy MFY binosini qurish bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash shartnomasini tuzdilar.

**1. Shartnomaning mazmuni**

- 1.1. “Buyurtmachi” topshirig'iga asosan “Bajaruvchi” Chiroqchi tumani Quruqsoy MFY binosini qurish bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlashni o'z zimmasiga oladi.
- 1.2. “Bajaruvchi” loyiha ishlarini “Korxonalar, bino va inshootlari qurilishiga loyiha-smeta xujjatlarining tarkibi, ishlab chiqish tartibi va tasdiqlash” haqidagi SHNQ 1.03.01-03, “Qurilishda joriy shartnomaviy baholarni aniqlash tartibi” to'g'risidagi SHNQ 4.01.16-04 va loyihaga qo'yiladigan me'yoriy talablarni, qoida va qo'llanmalar asosida bajarilishini ta'minlaydi.
- 1.3. Bajariladigan ishlarga ilmiy, texnik, iqtisodiy va boshqa talablarni bajarish loyihalash topshiriqnomasida ko'rsatiladi.
- 1.4. Ishlarning bajarilish muddati tanlov bayonnomasi asosida belgilanadi va mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 1.5. “Bajaruvchi” maxsus loyiha ishlariga yordamchi bajaruvchi tashkilotlar bilan qo'shimcha shartnoma tuzishga haqlidir. Qo'shimcha shartnomalarni tuzish “Bajaruvchi”ning zimmasiga yuklatilgan mazkur shartnomaning shartlarini bajarish javobgarligidan ozod etmaydi.
- 1.6. Xo'jalik shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.

**2. Tomonlarning majburiyatlari**

3. a) “Bajaruvchi”ning majburiyatlari
4. 2.1. “Bajaruvchi” “Buyurtmachi” tomonidan berilgan loyihalash topshiriqnomasi va arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasi asosida loyiha ishlarini bajaradi;
5. 2.2. “Bajaruvchi” mazkur shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni “Buyurtmachi”ning ruxsatisiz uchinchi shaxsga berishga haqli emas.
6. 2.3. “Bajaruvchi” tomonidan tayyorlangan loyiha asosida hisoblangan smetadagi fizik ish hajmlar, material resurslar miqdori to'g'riligi (loyihaga mosligi) uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi va oyma-oy bajarilgan ishlar to'g'risida “Buyurtmachi”ga kelishilgan jadval asosida hisobot topshirib turadi.
7. 2.4. VMning 2021 yil 20 maydagi 321-sonli qarori 3-ilovasiga asosan “Qurilishda mualliflik va texnik nazorat to'g'risida Nizom” talabi asosida bajaruvchi tomonidan inshootda qurilish-montaj ishlarining loyiha yechimlariga muvofiqligi ustidan mualliflik nazoratini belgilangan tartibda olib boradi.
8. b) “Buyurtmachi”ning majburiyatlari:
9. 2.5. “Bajaruvchi”ga ish hajmlarini bajarilishiga kerakli arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasini taqdim etadi;
10. 2.6. Bajarilgan loyiha ishlaridan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadda foydalanadi;
11. 2.7. “Bajaruvchi” tomonidan bajarilayotgan loyiha ishlari va ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini kuzatib boradi, mualliflik nazoratini belgilangan tartibda olib boradi;
12. 2.8. “Buyurtmachi” mablag' bilan ta'minlovchi tashkilotlarga bajarilgan loyiha ishlarining hajmi to'g'risida hisobotlarni o'z vaqtida topshirilishini ta'minlaydi.

**3. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati**

- 3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha “Bajaruvchi” tomonidan bajariladigan ishlar tanlov (tender) savdosi natijasida aniqlangan va tanlov (tender) komissiyasining 2022 yil 12-noyabrdagi 182634 -

sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan qiymati barcha soliqlar, yig'ima va ajratmalarni (QQSni inobatga olgan holda) joriy narxlarda **6 000 000** (Olti million) so'mni tashkil etadi.

3.2. "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ni mazkur shartnoma bo'yicha oldindan 15 foiz miqdorida bo'nak (avans) mablag'i bilan ta'minlaydi. 2022 yil tasdiqlangan manzilli dasturga asosan ajratilgan limit doirasida mablag' moliyalashtirib beriladi. Belgilangan mablag'lar bilan ta'minlash "Buyurtmachi"ni shu maqsadlar uchun Moliyalashtiruvchi organlar tomonidan moliyalashtirilgandan keyin 5 bank ish kunida amalga oshiriladi. Bajarilgan ishlar uchun moliyalashtirishning qolgan qismi mazkur ishlar sifatli qilib bajarilib, mualliflik nazoratini belgilangan tartibda olib borgach dalolatnomalar asosida qabul qilingandan keyin bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

3.3. Mablag' bilan ta'minlovchi organ tomonidan inshoot uchun mablag' ajratilmagan holatda "Buyurtmachi" bajarilgan ish uchun bajaruvchiga to'lovlarni shartnomada belgilangan muddatda amalga oshirish majburiyatini olmaydi va iqtisodiy sud oldiga moliyalashtirilmagan mablag' uchun javobgar bo'lmaydi.

3.4. "Bajaruvchi" tomonidan ishlab chiqilgan qurilishga sarflanadigan moddiy texnika resurslari miqdori va qurilish muddati uzil-kesil hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi, ayrim hollar bundan mustasno, ya'ni:

3.4.1. Ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish qiymati va muddatini o'sishiga yoki shu parametrlardan biriga bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major holati) sabab bo'lsa.

3.4.2. "Buyurtmachi" tomonidan ish hajmlariga o'zgartirish kiritilganda.

3.4.3. Ishlarni bajarish, xizmati ko'rsatish muddati bir yildan ortiq bo'lganda.

3.4.4. Loyiha-smeta bo'yicha hajmga o'zgartirish kiritilganda shartnoma qiymatiga o'zgartirish qo'shimcha kelishuv tuzish bilan yo'l qo'yiladi.

3.4.5. Asoslab berilgan holda, yuqorida qayd etilgan o'zgartirishlar "Buyurtmachi" va "Bajaruvchi" o'rtasida qo'shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi.

#### **4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi**

4.1. Bajarilgan ishlar ShNQ 1.03.01-03 va "Buyurtmachi" tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshiriq talablari asosida qabul qilinadi.

4.2. "Bajaruvchi" ishlarni bajarib bo'lgach, "Buyurtmachi"ga texnik topshiriqda ko'rsatilganidek topshirish-qabul qilish dalolatnomasi bilan birgalikda ilova qilib 2 ta nusxada loyiha-smeta hujjatlari komplektini taqdim etadi.

4.3. "Buyurtmachi" mazkur shartnomaning 4.2.-bandida ko'rsatilganidek, topshirish-qabul qilish dalolatnomasini va hisobot hujjatlarida bajarilgan ishlarni 5 kun mobaynida qabul qilish majburiyatini oladi va "Bajaruvchi"ga imzolangan yoki asosli e'tiroz bildirilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasini jo'natadi.

4.4. Bajarilgan ishlarini topshirish-qabul qilish davomida "Buyurtmachi"ning asosli e'tirozi bo'lsa, kamchiliklarning ro'yxati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi jarayoni keyinchalik uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi ma'lum bo'lib qolsa, tomonlar 5 kun mobaynida bir-birlarini ishlar to'xtatilganligi haqida xabardor qilishlari shart va 10 kun mobaynida ishlarni davom ettirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan yo'nalishlarni oydinlashtiruvchi masalalarni ko'rib chiqishlari kerak. "Buyurtmachi" ushbu holatda "Bajaruvchi"ga amalda bajarilgan loyiha ishining harajatlarini mazkur shartnomaning 3.3.2 va 3.3.4 bandlariga asosan amalga oshiradi.

#### **5. Tomonlarning javobgarligi**

5.1. To'lov talabnomasini asossiz ravishda to'la yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitoblarning boshqa shakllardagi ishlarga haq to'lashdan bosh tortganligi (G'aznachilik boshqarmasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaslik, chek bermaslik, akkreditiv qo'ymaslik va xokozo) uchun, "Buyurtmachi" to'lovdan bosh tortgan yoki rad etgan summasining 0,04 foiz hajmida "Bajaruvchi"ga penya to'laydi. Ammo bunda umumiy summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan oshmasligi kerak.

5.2. "Buyurtmachi" olgan majburiyatini buzganligi uchun mazkur shartnomaning 4.3 moddasiga asosan u "Bajaruvchi"ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning ijro etilmay qolgan qismining 0,04 foiz hajmida penya to'laydi. Ammo bunda umumiy summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan ortib ketmasligi kerak.

5.3. "Bajaruvchi" ishlarini bajarishda, xizmat ko'rsatishda olgan majburiyatlarini buzganligi uchun o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning ijro etilmay qolgan qismining 0,04 foiz hajmida penya to'laydi. Ammo bunda umumiy summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan ortib ketmasligi kerak. Penya to'lash shartnoma majburiyatini buzgan tomonni kechiktirib bajargan ishi yoki ko'rsatgan xizmati oqibatida keltirilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.4 "Bajaruvchi" shartnoma talablariga ko'ra mualliflik nazoratini lozim darajada olib bormaganligi aniqlansa shartnoma umumiy qiymatining 30 % miqdorida jarima to'laydi.

5.5. "Bajaruvchi" tomonidan tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarida nuqsonlar (tayyorlangan smeta hujjatlaridagi ish hajmlarini loyihaga mos kelmasligi) aniqlansa "Bajaruvchi" kamchiliklarni o'z hisobidan to'g'rilanishini ta'minlaydi yoki taqdim etilgan loyiha-smeta hujjatlarida qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi, yetkazilgan zararlarni qoplab beradi.

5.6. Agar sodir bo'lishiga tomonlarning hech biri javob bermaydigan (fors-major) hollar yuzaga kelsa, tomonlar o'z harakatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik me'yorlariga suyanadilar.

5.7. Agar bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar kerakli sifatga, texnik shartlarga va majburiyat shartlariga mos kelmasa, "Buyurtmachi" bajarilgan ishlarga haq to'lashdan bosh tortishga haqli. "Bajaruvchi" dan sifatga javob bermaydigan ish qiymatining 0,4 foizi penya undirishga haqli, biroq bunda penyaning umumiy summasi shartnoma qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Agar bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan so'mmani qaytarishni talab qilishga, hamda penya talab qilishga haqli.

Penya hisobi to'lov talabnomasi bank muassasasiga, loyiha nujjetlarining sifati, assortimenti va sifati lozim darajada bo'lmagan bajarilgan ishlar aniqlangan kundan boshlab bu haqida dalolatnoma tuzilganidan keyin 10 kundan kechikmay taqdim etilishi lozim. Penya hisobi to'lov talabnomasi belgilangan 10 kunlik muddatni buzgan tarzda taqdim etilsa va "Bajaruvchi" penyani ixtiyoriy to'lashdan bosh tortsa penyani undirish belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan amalga oshiriladi.

5.8. ShNQ 1.03.01-03ning 1.13 bandiga asosan inshootning loyiha-smeta xujjatlarida qabul qilingan texnik iqtisodiy yechimlar, fizik ish hajmlarining to'g'riligi va qurilish materiallari uchun qo'llaniladigan birlik narxlarining to'g'riligi va haqqoniyliги uchun loyiha tashkiloti to'liq javob berishlari, agarda qurilish ishlariga tender savdolari o'tkazilgandan so'ng qurilish jarayonida loyiha hujjatlarida aniqlangan xato va kamchiliklar qiymati aniqlansa, ushbu kamchiliklarni to'g'rilash uchun ketadigan barcha xarajatlar loyiha tashkilotlari tomonidan to'liq qoplaniladi.

5.9. Shartnomani ijro etmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi uchun, javobgarlik agar shartnomada o'zgacha ko'zda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonunining 24-35-moddalariga asosan javobgarlik choralari qo'llaniladi.

5.10. Tomonlar o'rtasida nizolar va kelishmovchiliklar yuz bergan holatlarda, umumiy da'vo muddati ( 3 yil ) hisobga olingan holda Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilinadi.

## **6. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holati (fors-major)**

6.1. Agar tomonlar majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolishi tabiiy hodisalar, harbiy harakatlar, yuqumli kasalliklar tarqalishi va boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, hamda bu holat mazkur shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'la ijro etilmay qolgan qismi uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarning ijro muddati bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat, keltirib chiqargan oqibat hukm surgan vaqtga mos ravishda muddati uzaytiriladi.

6.2. Agar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 3 oydan ortiq vaqtga cho'ziladigan bo'lsa, "Bajaruvchi" va "Buyurtmachi" ishni davom ettirish yoki noma'lum vaqtga to'xtatish uchun chora-tadbirlar ko'rishni muhokama qiladilar.

Agar tomonlar 2 oy mobaynida bir to'xtamga kela olmasalar, tomonlarning har qaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## **7. Qo'shimcha shartlar**

7.1. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan tomonlarning o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan belgilanadi.

### 8. Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari

8.1. Mazkur shartnomani tomonlar imzolagandan keyin qonuniy kuchga kiradi va uning shartlari to'liq bajarib bo'lguncha haqiqiy hisoblanadi.

8.2. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 31 dekabr 2022 yil.

8.3. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

### 9. Nizolarni hal etish tartibi va huquqiy ekspertizasi

9.1. Shartnomaning mazmuni uni tuzishga tayyorlash jarayonida yuridik xizmat sub'ektlari yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonunchilikka muvofiq kelishi tekshirilgan bo'lishi darkor. Ularning imzosiz yoki xulosasiz shartnoma tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

9.2. Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek, keltirilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida vujudga kelgan bahslar qonunchilikda belgilangan tartibda Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan yoki, tomonlarning kelishuviga binoan hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

### 10. Tomonlarning rekvizitlari

"Buyurtmachi"	"Bajaruvuchi"
<p><b>Viloyat hokimligi Injining kompaniyasi</b> Manzili: Qarshi sh, O'zbekiston ovozi gazetasi 3-uy Tel: 227-16-56. 227-14-60, faks 227-19-82. sh/x*r . 301821860104017011402018065 INN 204 796 710 OKONX 69000 ATB Ipotika bank Qashqadaryo viloyati fil</p> <p><b>Direktor</b>  <b>A. Normo'minov</b></p>	<p><b>«Reforma-Ezoz» MChJ</b> Manzili: Qarshi shahri Paxtazor mittitumani Tel: +99891 227-96-53. H/R: 2020 8000 1053 9690 8001 Hamkor bank Qarshi filiali MFO: 01031 STIR: 308 544 148 OKONX:</p> <p><b>Direktori</b>  <b>Shuhrat Atabayev</b></p>

*Huquqshunos xulosasi: Ushbu shartnoma O'zR FK ra «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunning normalari va tomonlar javobgarligi, nizolarni hal etish amaliyotidagi qonun hujjatlari talablariga javob beradi.*

**Bosh yuristkonsult:** 

(Imzo)

**D.Kulnazarov**

## ISHLARNING KALENDAR REJASI

Qashqadaryo viloyat hokimligi injiniring kompaniyasi topshirig'i bilan, Chiroqchi tumani Quruqsoy MFY binosini qurish bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash.

2022 yil 17 - noyabrdagi  
4 -sonli shartnomaga  
1-ilova

№	Shartnoma bo'yicha bajariladigan ishlarning va asosiy bosqichlarning ro'yxati	Bajarish muddati		Bosqichlarning hisob qiymati yig'indisi QQS bilan birga
		Boshlanishi	Yakunlanishi	
1	Chiroqchi tumani Quruqsoy MFY binosini qurish bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash	2022 yil	2022 yil	6 000 000
	<b>Jami:</b>			6 000 000

Olti million  
(So'mma so'z bilan)

“BUYURTMACHI” nomidan

“BAJARUVCHI” nomidan

Direktor:



Direktori



Sh. Atabayev

2022 yil 17 noyabrdagi  
7 -sonli shartnomaga 2-ilova  
Chiroqchi tumani Quruqsoy MFY binosini  
qurishbo`yicha loyiha-smeta xujjatlarini  
tayyorlash

### S M E T A S I

Buyurtmachi: Qashqadaryo viloyat hokimligi injiniring kompaniyasi  
Bajaruvchi: «Reforma-Ezoz» MChJ

№	Tashkilot, qurilish inshootlari yoki ish turlarining tavsifi	Qurilish uchun loyiha (qidiruv) ishlari narxlari to'plamining qismi № bobi, jadvali bandi	Qiymatini hisoblash (axo)=c	Qiymati QQS bilan birga
1	2	3	4	5
1	Chiroqchi tumani Quruqsoy MFY binosini qurishbo`yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash	O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirining 2020 yil 19 avgustdagi 876-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risida»gi Nizom		6 000 000
<b>JAMI</b>				<b>6 000 000</b>

Olti million  
(So'mma so'z bilan)